

UO‘K: 331.45

 10.5281/zenodo.13790037

## OBODONLASHTIRISH BO‘YICHA ISHCHILARNING XIZMAT VAZIFASINI BAJARISH CHOG‘IDAGI XAVFLARNI BAHOLASH USULLARI



**Mamashayev Bahrom Safarovich**

Termiz muhandislik texnologiyalari instituti, katta o‘qituvchisi,  
Termiz, Uzbekistan  
E-mail: [mamashayevbahrom5@gmail.com](mailto:mamashayevbahrom5@gmail.com)



**Narziyev Shovkiddin Murtozayevich**

PhD, dotsent, Renessans ta’lim universiteti, Toshkent, O‘zbekiston  
E-mail: [omad.uz.86@mail.ru](mailto:omad.uz.86@mail.ru)  
ORCID ID: 0000-0001-6025-3235

**Annotatsiya.** Jahonda har qanday faoliyat turli kutilmagan tabiiy ofatlar oqibatida yoki insonni tashqi va ishlab chiqarish omillari ta’siridan himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rilmaganligi yoxud kimningdir xato xatti-harakati oqibatida paydo bo‘ladigan xavflardan soqit qila olmaydi. Shu boisdan ham, mehnatini muhofaza qilish, baxtsiz hodisalar va shikastlanishlar dinamikasini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga istiqboldagi ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada obodonlashtirish bo‘yicha ishchilarning xizmat vazifasini bajarish chog‘idagi xavflarni aniqlashda o‘rganiladigan omillar, xavflarni Fine-Kinney usuli bo‘yicha balli baholash va bu baholash natijasida mehnatni muhofaza qilish samaradorligi oshishi ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** obodonlashtirish, mehnat sharoiti, xavf, xavf manbai, baholash, Fine-Kinney usuli, kasbiy xavf, mehnat muhofazasi, kasb kasalligi, bandlik.

## МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКА ОСНОВНЫХ РАБОТНИКОВ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ СЛУЖБНЫХ ОБЯЗАННОСТЕЙ

**Мамашаев Бахром Сафарович**

Термизский инженерно-технологический институт, старший преподаватель, Термиз, Узбекистан

**Нарзиев Шовкиддин Муртозаевич**

PhD, доцент, Образовательный университет Ренессанс, Ташкент, Узбекистан

**Аннотация.** Любая деятельность в мире не может избежать рисков, возникающих в результате различных неожиданных природных катаклизмов или в результате непринятия мер по защите человека от воздействия внешних и производственных факторов, либо в результате чьего-либо неправильного поведения. По этой причине внимание уделяется разработке мероприятий по снижению динамики охраны труда, несчастных случаев и травматизма как одной из приоритетных задач на перспективу. В данной статье изучаются факторы, которые изучаются при определении рисков при выполнении обязанностей работников озеленения, оценке рисков по методу Файна-Кинни и повышении эффективности охраны труда в результате этой оценки. обдуманной.

**Ключевые слова:** озеленение, условия труда, риск, источник риска, оценка, метод Файна-Кинни, профессиональный риск, охрана труда, профессиональное заболевание, занятость.

## METHODS FOR RISK ASSESSMENT OF KEY EMPLOYEES WHEN PERFORMING OFFICE DUTIES

**Mamashayev Bahrom Safarovich**

Termez Engineering-Technological Institute, Senior Lecturer,  
Termez, Uzbekistan

**Narziev Shovkiddin Murtozaevich**

PhD, Associate Professor, Renaissance Educational University,  
Tashkent, Uzbekistan

**Abstract.** Any activity in the world cannot avoid risks arising as a result of various unexpected natural disasters or as a result of failure to take measures to protect people from the effects of external and industrial factors, or as a result of someone else's incorrect behavior. For this reason, attention is paid to the development of measures to reduce the dynamics of labor protection, accidents and injuries as one of the priorities for the future. This article examines the factors that are studied in identifying risks in the performance of landscaping workers' duties, assessing risks using the Fine-Kinney method, and improving occupational safety and health performance as a result of this assessment. thoughtful.

**Keywords:** landscaping, working conditions, risk, source of risk, assessment, Fine-Kinney method, occupational risk, labor protection, occupational disease, employment.

**Kirish.** 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 69-maqсадida mehnat sharoitlarini yaxshilash belgilangan [1]. Respublikada shaharlar, tuman markazlari, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlariga zamonaviy qiyofa baxsh etish maqsadida, shu jumladan, respublika tumanlari va shaharlaridagi mavjud obodonlashtirish masalalari bo'yicha tashkilotlar (bo'linmalar) negizida obodonlashtirish boshqarmalarini tashkil etish yo'li bilan obodonlashtirishni yaxshilash yuzasidan izchil choralar ko'rilmogda.

Shu bilan birga, oxirgi 4 yilda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalarining moddiy-texnik jihatdan yetarlicha ta'minlanmaganligi va jihozlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi, ularni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minlashning past darajada ekanligi shuningdek,

ushbu sohada ta'sirchan jamoatchilik nazoratining yo'qligi aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida kompleks chora-tadbirlar olib borilmogda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi PQ-4351-son hamda 2021-yil 2-apreldagi PQ-5052-sonliga qaroriga asosan obodonlashtirish boshqarmalarining kuch va resurslaridan oqilona foydalanish, ularning ishini optimallashtirish, qo'l mehnatini kamaytirish shuningdek, obodonlashtirish sohasida ishlarni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy vazifalari va yo'nalishlari belgilab berilgan [2, 3].

Hududlarda aholi turmush darajasini oshirish, keng ko'lamlı obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida yangi maydonlar va hiyobonlarning barpo

etilishi tufayli Obodonlashtirish boshqarmalarida ish hajmlari (supurish, ko'kalamzorlashtirish, irrigatsiya tarmoqlari, tashqi yoritish va hokazo) oshib bormoqda. 2019-yilda Respublikaning shahar va tuman Obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi ko'kalamzorlashtiriladigan hamda obodonlashtiriladigan maydonlar 203 569 ming m<sup>2</sup> ni tashkil etgan bo'lsa 2022-yilga kelib 227 791 ming m<sup>2</sup> ni ya'ni ko'kalamzorlashtirish maydonlari 24 222 ming m<sup>2</sup> ga ortganligini ko'rsatmoqda.

Obodonlashtirish boshqarmalarining ustuvor vazifalari obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari xavfsizligini ta'minlash, ish jarayonini optimallashtirish, ishchilar, jumladan obodonlashtirish bo'yicha ishchilarining sog'lig'ini, hayotini, xavfsizligini himoyalash va ish qobiliyatini tiklashdan iborat [4]. Obodonlashtirish bo'yicha ishchilari bajaradigan ishlarning yuqori sifatini ta'minlashda aniq va og'ir jismoniy harakat qilish talab etiladi. Insonning asosiy harakat sifatlari uning tayanch-harakat apparatini hosil qiladigan quvvatiga bog'liq bo'ladi [5]. Chunki obodonlashtirish bo'yicha ishchilarining barcha harakat turlari tayanch-harakat apparati mushaklarining energiya sarfi bilan bog'liq. Obodonlashtirish bo'yicha ishchilarining mexanik harakatlari piyoda yurish, har xil og'irlikdagi yuklarni tashish, turli zinapoyalardan ko'tarilish va tushish, o'tirib-turish kabi harakatlardan iborat [6]. Yuqorida sanab o'tilgan jismoniy ishlarni bajarishda bir vaqtning o'zida tayanch-harakat apparatining bir qancha mushaklari ishtirok etadi va bu katta miqdordagi energiya sarfiga olib keladi. Obodonlashtirish bo'yicha ishchilari tomonidan jismoniy ishlarni bajarish tartibi asosan dinamik ishdir [7].

Bugungi kunda aholining ijtimoiy hayotda ijobiy o'zgarishlar qilish, bandlikni ta'minlash va ishsizlikka qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratiyaviy davlat va jamiyat boshqaruvni amalga oshiradi. Shu bois, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi (yangi tahrir) Qonuni-ning 6-moddasida "Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonun-chilikka muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi" deb belgilab qo'yilgan [8, 9].

Aholini ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash, xavfsiz va qilay mehnat sharoitlarini yaratish, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillaridan muhofaza qilishni amalga oshiruvchi mehnat muhofazasini boshqaruv tizimini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi va "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"ga qonunida ham belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 25-moddasida, mehnatni muhofaza qilish normativ talablariga muvofiq bo'lgan mehnat xavfsizligini va shart-sharoitlarini ta'minlashi, xodimlarni o'z mehnat majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, asboblarni, texnik hujjatlar va boshqa vositalar bilan ta'minlashi [8] ish beruvchining majburiyatida ekanligi belgilangan.

**Muhokama.** Obodonlashtirish bo'yicha ishchilarning mehnat xavfsizligini balli

baholash har bir ish joyida barcha ish turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ishlarning barcha turdagi bajarayotgan ishlarini hisobga olgan holda, shuningdek, agar kerak bo'lsa, bir guruh ishlar, tarkibiy bo'linma, ishlarining o'ziga xosligi uchun umumlashtirilgan jarayonda amalga oshiriladi.

Barcha aniqlangan xavflar batafsil va aniq tasvirlangan bo'lishi kerak. Qanchalik ko'p ma'lumotlar bo'lsa, xavfni keyingi baholash shunchalik ishonchli bo'ladi.

Xavf manbalarini aniqlash uchun quyidagilarni ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq:

1) oddiy (kundalik) va noyob (bir martalik) ish, favqulodda vaziyatlar;

2) Obodonlashtirish xavfli ishlab chiqarish obyektlarining hududida olib borilayotgani;

3) infratuzilma, jarayonlar, ish joylari va ish joylarining joylashuvi, asbob-uskunalar, qurilmalar, materiallar va xomashyo (tashuvchi tomonidan taqdim etilgan ish beruvchi yoki boshqa tomonlar);

4) inson omili (shaxsiy maqsadlar, qobiliyatlar, xodimlarning niyatlari va tasavvurlari, ularning xatti-harakatlari, ijtimoiy iqtisodiy ahvoli, etnik kelib chiqishi va madaniyati va boshqalar);

5) manbalari ish joyi bilan bog'liq bo'lmagan xavf-xatarlar, lekin sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va ishchi xavfsizligi;

6) tashkilotdagi o'zgarishlar yoki taklif qilinadigan o'zgarishlar, uning faoliyat yoki materiallar;

7) mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimidagi o'zgarishlar, shu jumladan. vaqtinchalik va ularning jarayonlar va faoliyatga ta'sir qilish;

8) xavflarni baholash bilan bog'liq amaldagi me'yoriy hujjatlar.

Xavfni aniqlash uchun kirish sifatida, shuningdek, hamma xavf baholash, tashkilotda mavjud quyidagi va boshqa tomonlardan olingan hujjatlar va ma'lumotlar (masalan, pudratchilar):

1) mehnat sharoitlarini, ishlab chiqarishni maxsus baholash natijalari nazorat, davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati;

2) baxtsiz hodisalar, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish materiallari va kasbiy kasalliklar,

3) mehnat sharoitlari va xavfsizlik holati ustidan ichki nazorat natijalari;

4) davriy tibbiy ko'rik natijalari;

5) binolar va inshootlarning texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlar; ishlab chiqarish maydonchalari,

6) uskunaning texnik holati va texnik xizmat ko'rsatishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

7) asbob-uskunalar, asboblar va texnik hujjatlar qurilmalar,

8) texnik hujjatlar (texnologik reglamentlar) ishlab chiqarish jarayonlari,

9) ish va lavozim tavsiflari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalar va ish beruvchining boshqa mahalliy hujjatlari,

10) statistik ma'lumotlar, ilmiy tadqiqot, uslubiy tavsiyalar,

11) xodimlarning so'rovlari;

12) normativ-huquqiy hujjatlarning talablari.

Identifikatsiya natijalariga ko'ra, unda mavjud bo'lgan barcha xavflar ro'yxati, shu jumladan mumkin bo'lganlar muayyan vaziyatlarda yoki favqulodda vaziyatlarda paydo bo'ladi.

Mehnat xavfsizligini baholashning "Tekshirish varaqasi usuli (nazorat, nazorat ro'yxati)", "Agar... nima bo'ladi?", "Aqliy hujum", "Delfi", "Intervyu", "Matritsa", "Fine-Kinney", "Hodisa daraxti tahlili", "Nosozliklar turlari va oqibatlarini tahlil

qilish”, “Turlarni tahlil qilish, nosozliklar-ning oqibatlarini va tanqidiyligi”, “Nosozliklar daraxti tahlili (nosozliklar)”, “Inson omili ta’sirini baholash” kabi keng tarqalgan usullari bor. Bu usullar orasida Fine-Kinney usuli xavf darajasini va ularni

baholash, xavflarni boshqarishga ustuvorlik berish imkoniyatini beradi. Bu uchta ishchining xavflarga duchor bo’lishi, xavflarning yuza-ga kelish ehtimolligi va xavflarning jiddiy oqibatlarini kabi komponentning hosilasidir. Fine-Kinney

1-jadval

***Xavf ehtimoli, ta’siri va oqibatlarini hisoblash***

<b>Xavf ehtimolining xususiyatlari</b>	<b>Ball</b>	<b>Xavfli ta’sir qilish xususiyatlari</b>	<b>Ball</b>	<b>Xavf oqibatlarining xususiyatlari</b>	<b>Ball</b>
Bu albatta sodir bo’ladi	10	Doimiy (ish vaqtida bir necha marta) kunlar, smenalar)	10	Ko’p sonli jarohatlangan va halok bo’lgan baxtsiz hodisalar	100
Juda ehtimol	6	Muntazam ravishda (har ish kuni, smenada)	6	O’limga olib keladigan baxtsiz hodisa, hayot bilan mos kelmaydigan kasb kasalligi	40
Xaraktersiz, ammo mumkin	3	Vaqt-vaqti bilan (haftada)	3	Uzoq vaqt davomida mehnat qobiliyatini yo’qotish, kasbiy kasallik, nogironlik bilan og’ir baxtsiz hodisa (shu jumladan guruhli baxtsiz hodisa).	15
Darhaqiqat	1	Ba’zan (oylik)	2	Jiddiy oqibatlarsiz yoki nogironliksiz jiddiy baxtsiz hodisa	7
Tasavvur qilish mumkin, lekin bu aql bovar qilmaydi	0,5	Kamdan-kam (har yili)	1	Vaqtinchalik kichik baxtsiz hodisa (shu jumladan guruh avariyasi). nogironlik	3
Deyarli imkonsiz	0,2	Juda kamdan-kam (yiliga bir martadan kam)	0,5	Kichik baxtsiz hodisa, birinchi yordam etarli	1
Mutlaqo mumkin emas	0	Hech qachon	0		

2-jadval

***Kasbiy xavf darajalarining tasnifi***

<b>IPR ballar</b>	<b>Xarakterli</b>	<b>Harakat qilish zarurati</b>
0-20	Hech qanday xavf yo’q yoki ahamiyatsiz	Hech qanday chora-tadbirlar talab qilinmaydi
21-70	Kichik o’rtacha xavf	Harakatlar talab qilinadi, lekin ularni rejalashtirish uchun ko’p vaqt bor
71-200	O’rtacha muhim xavf	Qisqa vaqt ichida chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishni talab qiladi
201-400	Yuqori xavf	Shoshilinch chora-tadbirlar talab qilinadi
400 dan ortiq	Juda yuqori xavf	Harakat qilinmaguncha faoliyatni to’xtatishni talab qiladi

usuli oldindan tuzilgan ball bilan ifodalangan ushbu uch parametr uchun darajalarni belgilaydi. Mehnatni muhofaza qilish talablarini buzish yoki ularga rioya qilmaslik shikastlanish va kasb kasalliklariga olib keladi [10].

### **Obodonlashtirish bo'yicha ishchilarning xizmat vazifasini bajarish chog'idagi xavflarni balli baholash (Fine-Kinney usuli bo'yicha)**

$$IPR = V_r \times P_d \times P_s,$$

bunda IPR - bu kasbiy xavf indeksi,

$V_r$  - xavf ehtimoli,

$P_d$  - xavfga duchor bo'lish,

$P_s$  - xavf oqibatlarini.

Har qanday faoliyatida ishchilar uchun muayyan xavflar kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 361-moddasiga muvofiq ishlash uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar mazkur turdagi asbob-uskunalar uchun belgilangan xavfsizlik normalariga mos bo'lishi, tegishli texnik pasportlarga (sertifikatga), ogohlantiruvchi belgilarga ega bo'lishi va ish joylarida xodimlar xavfsizligini ta'minlash uchun to'siqlar yoki himoya vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Qonunchilik darajasida xavflarni baholashni o'tkazish metodologiyasi yo'q, shuning uchun ish beruvchi uni mustaqil ravishda ishlab chiqish huquqiga ega. Tashkilotlar o'z-o'zini baholashni o'tkazishi yoki xizmatlar bozorining professional ishtirokchilarining bilan shartnoma tuzish orqali amalga oshirishi mumkin.

Obodonlashtirish bo'yicha ishchilarning mehnat xavfsizligini balli baholashni amalga oshirish uchun uslub ishlab chiqish va uni amalga oshirish orqali mehnat jarayonidagi xavflarni erta aniqlash orqali baxtsiz hodisalar va kasbga aloqador kasalliklar dinamikasini kamaytirish mumkin.

Obodonlashtirish bo'yicha ishchilarning mehnat xavfsizligini balli baholash uslubi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1) baholashning maqsadi va vazifalari (birinchi marta yoki yo'qligiga qarab). baholash takrorlanadi, lekin, qoida tariqasida, baholashning maqsadi xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash bo'yicha choratadbirlarni takomillashtirish),

2) baholash bosqichlari va muddatlari;

3) normativ-huquqiy hujjatlar, xavflar to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari;

4) zarur resurslar va moliyalashtirish miqdori;

5) xavflarni baholash usullari;

6) hujjatlar va baholash natijalariga qo'yiladigan talablar.

Obodonlashtirish bo'yicha ishchilarning mehnat xavfsizligini balli baholashni komissiyasining tarkibi tashkilotning o'zi tomonidan belgilanadi. Balli baholashning hajmi va bajariladigan ishlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqori turuvchi tashkilot vakillarini kiritish tavsiya etiladi (masalan, bosh muhandis, bosh energetik). Komissiya tarkibi mehnat muhofaza xizmati (boshqarmasi, bo'limi, shu'bas, mutaxassisi) boshqaruv mutaxassislar, jamoat nazorati vakillaridan tashkil topadi.

**Xulosa.** Obodonlashtirish bo'yicha ishchilarning ish faoliyati, asosan har qanday noxush meteorologik vaziyatlarda, kechayu kunduz ochiq havoda davom etadi.

Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish chog'ida mehnat faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni o'rganish va hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-sonli qarori "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining

mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari ma‘muriyati xodimlarni belgilangan me‘yorlarga muvofiq, kerakli yakka tartibdagi himoya vositalari bilan ta‘minlashi, ulardan foydalanish muddatlariga hamda saqlash, yuvish, tozalash va ta‘mirlash bo‘yicha zaruriy shartlariga rioya qilinishini ta‘minlagan holda yakka tartibdagi himoya vositalarini berish hisobini yuritishi shart. Yakka tartibda himoyalani vositalaridan foydalanishi lozim bo‘lgan xodimlar, ularning qo‘llanish usullarini, himoyalani xususiyatlariga, amal qilish muddatlari

to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lishi hamda ulardan foydalanishga o‘rgatilishi lozim.

Obodonlashtirish bo‘yicha ishchilarning mehnat xavfsizligini balli baholash har bir ish joyida barcha ish turlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Ishlarning barcha turdagi bajarayotgan ishlarini hisobga olgan holda, shuningdek, agar kerak bo‘lsa, bir guruh ishlar, tarkibiy bo‘linma, ishlarning o‘ziga xosligi uchun umumlashtirilgan jarayonda amalga oshiriladi. Barcha aniqlangan xavflar batafsil va aniq tasvirlangan bo‘lishi kerak. Qanchalik ko‘p ma‘lumotlar bo‘lsa, xavfni keyingi baholash shunchalik ishonchli bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Иорданская Ф.А. Функциональная готовность и состояние здоровья спортсменов в процессе долговременной адаптации к напряженным физическим нагрузкам // Теория и практика физической культуры. — 2009. -№ 4. —41-44 с.
2. QMQ 2.04.05-97 — “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalashtirish”
3. Поуп М.Н., Бейнон Б.Д. Биомеханическая реакция тканей организма на разовые и длительные нагрузки // Спортивные травмы. Основные принципы профилактики и лечения. — К.: Олимпийская литература, 2002. —109-120 с.
4. Кай-Минь Чен, Хсу С. Повреждения суставного хряща и связок // Спортивные травмы. Основные принципы профилактики и лечения. — К.: Олимпийская литература, 2002. —52-67 с.
5. SanQvaM №0325-16 “Ish joylarida shovqin darajasining ruxsat etilgan me‘yorlar”
6. Лидбеттер У.Б. Усталостные травмы сухожилий: диагноз и лечение // Спортивные травмы. Основные принципы профилактики и лечения. — К.:Олимпийская литература, 2002. —375 с.
7. QMQ 2.01.08-96 — “Shovqindan himoya”
8. Юкелсон Д., Мерфи Ш. Психологические аспекты в профилактике травм // Спортивные травмы. Основные принципы профилактики и лечения. -К.: Олимпийская литература, 2002. —281-287 с.
9. Моффруа Т. Методы профилактики повреждений опорнодвигательного аппарата // Спортивные травмы. Основные принципы профилактики и лечения. — К.: Олимпийская литература, 2002. —31-41 с.